

## ISHSIZLIK KELIB CHIQUISH SABABLARI VA YECHIMLARI

*Shuakbaeva Jasmina Muxtar qizi*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti*

*Sotsiologiya yo'nalishi 2- kurs talabasi*

*Erejepova Sayora Tileumuratovna*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti*

*Sotsiologiya yo'nalishi 2- kurs talabasi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada jamiyatimizning aktual muammolaridan biri bo'lgan ishsizlik haqida tushuncha beriladi va uning kelib chiqish sabablari, turlari ham yechimlari aytib o'tiladi. Shuningdek O'zbekistonda ishsizlik reytingi va jahonda nechanchi o'rinda ekanligini to'g'risida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ishsizlik, shaxs, mehnat, ish, ish haqi, ishsizlik indeksi.

Ishsizlik hozirgi vaqtda jamiyatning eng markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda diplomi bor lekin ishi yo'q, o'qimagan bo'lsa ham ish qidirayotgan, har xil sabablarga ko'ra ishdan chiqib ketgan shaxslar qanchadan-qancha. Hozirgi paytda ish hayot mazmunidek. Ishing bo'lmasa yashash ham qiyinlashib bormoqda.

Iqtisodiy nuqtai nazaridan ishsizlik deganda ishchi kuchining ish joyi bilan ta'minlanmaganligi va natijada, uning biron bir qonuniy daromad manbaiga ega bo'lmasligining muayyan (aniq) holati tushuniladi. Odatda, jahon mamlakatlari ishsizlik tushunchasini BMT, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish jamiyati talablariga ko'ra ishlab chiqishadi.

Xalqaro Tashkilotlarning bergan ta'rifiga binoan "ishsiz shaxslar" deganda ishga ega bo'lmagan, ishga tayyor va ish izlayotgan fuqaroni ishsiz shaxs dep e'tirof etish uchun qo'shimcha shartlar talab qilinadi

O'zbekiston Respublikasining " Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi Qonuniga binoan ishsiz shaxs deb, mehnatga qobiliyatli (o'n olti yoshdan boshlab to pensiya bilan ta'minlash huquqini olgunga qadar), ishga va ish haqiga mehnat daromatiga ega bo'lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatdan o'tgan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga qobiliyatli shaxslar e'tirof etiladi.<sup>1</sup>

Ishsiz shaxs deb e'tirof etish uchun quyidagi to'rt shart mavjud bo'lishi lozim:

Birinchi shart - fuqaro mehnatga qobiliyatli bo'lishi va amaldagi qonun hujjatlariga binoan pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmasligi kerak. Huquqiy

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида"ги Қонуни (янги таҳрири) Тошкент, 1998.

jihadan mehnat qilish qobiliyatining quyi darajasi, Mehnat kodeksining 77-moddasiga muvofiq 16 yosh deb belgilangan.<sup>2</sup>

Ikkinchi shart - fuqaro ishga va ish haqiga (mehnat daromatiga) ega bo'lmashligi lozim.

Uchinchi shart - fuqaro ishlashga tayyor bo'lishi lozim. Fuqaroning ishlashga tayyor ekanligini, uning mahalliy mehnat organiga ish qidirib rasmiy murojaat qilishi, belgilangan muddatlarda mehnat organiga qaytadan ro'yxatdan o'tib turishi va mehnat organlari tomonidan taklif qilingan maqbul ishni qabul qilish holatlari tasdiqlangan.

To'rtinchi shart - fuqaro barcha tegishli hujjatlarni taqdim qilgan holda mahalliy mehnat organida ish qidiruvchi shaxs sifatida ro'yxatdan o'tishi lozim.

Ta'rifga ko'ra, ishsizlik bu ishlashni istaydigan mehnatga layoqatli aholining ish bilan band bo'lmagan miqdoridir.

Ishsizlikning kelib chiqish sabablari mening fikrimcha eng avvalo insonlarning kasbni xato tanlashidadir. Sababi inson o'ziga yoqadigan kasbni tanlasa o'zida unga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otadi. Ikkinchidan kasbga bo'lgan ehtiyoji yo'q mutaxaslik tanlashi. Bu bo'lsa o'z-o'zidan ishsizlikni keltirib chiqaradi.

Iqtisodchilar ommaviy ishsizlikning haqiqiy sabablari qandayligi to'g'risida hanuzgacha bahslashdilar. Jumladan bu masala klassik va Keyns maktablari o'rtasidagi kelishmovchilik mavzularidan biridir. Bu baxsh xususida qisqacha to'xtalamiz.

Klassik va neoklassik nazariyasiga ko'ra, ommaviy ishsizlikning asosiy sababi pasayish ta'minotiga bo'lgan yuqori va moslashuvchan bo'lmagan ish haqi hisoblanadi.

Fikrimcha, O'zbekistonda ishsizlikning paydo bo'lishi va o'sish tarixi aynan Keyns qarashlarining to'g'riligini isbotlaydi. Ishsizlar rasmiy ro'yxatga o'lingandan boshlab, ishsizlik darajasi ma'lum darajada muntazam ortib bordi, shuncha ko'ra ish bilan bandlik ko'rsatkichlari esa pasayib boradi. Ishga joylashtirish qanchalik yuqori bo'lsa, ishsizlik darajasi shunchalik past bo'ladi.

Rostdan ham ish haqining past bo'lishi ishsizlikning ko'payishiga olib kelishi tabiiy hol albatta. Buning sababi bo'lsa insonning zarurliklari mana shu ish haqiga bog'langan. Hamma narsa qimmat lekin ish haqi kam bo'lsa har kim ham bunday ishga rozi bo'lishmaydi.

Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida aholining iqtisodiy faolligini oshirish va ishsizlikni kamaytirish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Iqtisodchi olim Q.X. Abduraxmonov aholining, shu jumladan, aholining ish bilan bandligini oshirish bo'yicha kuyidagilarni alohida ta'kidlab o'tgan: "Ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllari – uy mehnati, oilaviy biznes, kasanachilik, xizmat ko'rsatish va qoramolchilik

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат Кодекси 77-модда. Т.:2007.

kabi faoliyat turlari bilan shug'ullanish aholi ish bilan bandligini ta'minlashning asosiy yo'llaridan biridir".<sup>3</sup>

Ishsizlikni yaqindan o'rganish iqtisodiy tabiatni bilish uchun uning tasnifini bilish maqsadga muvofiqdir. Kelib chiqish mazmuniga ko'ra, ishsizlikni quyidagiasosiy turlarga ajratish mumkin:

- tabiiy ishsizlik;
- majburiy ishsizlik;

Tabiiy ishsizlik deyilganda, ishchi kuchi uning egasi ma'lum bir jamiyat a'zosining istak – xoxishlariga muayyan bog'liq bo'lgan holda ish bilan band bo'lmaslik holati tushuniladi.

Majburiy ishsizlik turlari esa, ishsizlikning ishchi kuchiga aloqador bo'lmagan holda kelib chiqishini tavsiflaydi.

Bugungi kunda respublikada ishsizlikning paydo bo'lish sabablariga ko'ra, quyidagi asosiy turlari ko'p uchramoqda:

1. Tarkibiy ishsizlik - bu iqtisodiyotning yangi tarmoqlari paydo bo'lishi yoki eskisiga barham berilishi va mulkchilik shakllarining o'zgarishi bilan yuzaga keladi;

2. Yashirin ishsizlik - bu asosan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari uchun xarakterlidir va bu haqiqiy ishchi kuchini kamroq miqdorda talab qiladi. Yashirin ishsizlik ishlab chiqarishning chuqur inqirozi sharoitida korxonalarda ish bilan ortiqcha bandlikning saqlanib qolganligidan dalolat beradi;

3. Mavsumiy ishsizlik - bu ma'lum mavsumda ish bilan bandlikni ta'minlovchi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash hamda tayyorlash muddati bilan asoslanadi. Mavsumiy ishsizlikning hajmi ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning mavsumiy omillari baravar ta'sir qilishi sifatida namoyon bo'ladi;

4. Texnologik o'zgaruvchan ishsizlik - bu korxonada texnologik o'zgarishlarning amalga oshirilishi va modernizatsiya qilinishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, fan va texnika yutuqlari natijasida qo'l mehnati o'rnini mashina egallashi natijasida yuzaga keladi.

5. Friksion ishsizlik - bu ishsizlik turi jamiyatdagi mavjud ishsiz kuchlarining ma'lum qismini ish joylari bo'yicha qayta taqsimlab, ulardan samarali foydalanishga shart-sharoit yaratadi, ya'ni eski ish sharoitlaridan (ish joyining uzoqligi, ish haqining pastligi, ish kuni davomiyligining nisbatan uzunligi va boshqalar) qoniqmagan ishchilar yangi ish joylarini qidiradilar. Ularga ega bo'lgan, bu mehnatdan nisbatan ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishadilar. Friksion ishsizlikning bo'lishi ma'lum darajada iqtisodiy jihatdan zaruriy va tabiiy holdir.

<sup>3</sup>. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: Дарслик. Т: 2009, 247-б.

6. Davriy ishsizlik – bu iqtisodiy inqirozning muayyan davrida ishlab chiqarishning pasayishi) natijasida yuzaga keladigan ishsizlik turi hisoblanadi.

Ishsizlik indeksi ( Unemployment Index) bu dunyo mamlakatlari va mintaqalaridagi mehnat bozori holatining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, u iqtisodiy faol aholi sonidagi ishsizlar ulushi sifatida belgilanadi (foiz bilan ifodalanadi). Xalqaro darajada ishsizlik darajasi har yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tizimining maxsus agentligi bo'lgan bandlik va mehnat munosabatlarini tartibga solish sohasida xalqaro strategik siyosatni amalga oshiruvchi Xalqaro Mehnat Tashkiloti (International Labour Organisation) metodologiyasi bo'yicha hisoblab chiqiladi.

2021 yil ma'lumotlariga ko'ra Jahon bo'yicha ishsizlik reytingida O'zbekiston 5,9% natija bilan 190 davlat ichida 81 o'rinda, MDH mamlakatlari orasida o'ltinchi o'rinni egallagan. MDH davlatlarida ishsizlik darajasi Armanistonda 17%, Gruziyada 14,4%, Tojikistonda 11%, Ukrainada 8,9%, Qirg'izistonda 6,3%, Ozarbayjonda 5,5%, Moldaviyada 5,5%, Rossiyada 4,6% va Turkmanistonda 3,9%ni tashkil qilar ekan.

2021- yil 1- yanvar holatiga O'zbekistonda ishsizlik darajasi 9,6%ni tashkil etdi. Bu haqida Mehnat vazirligi xabar berdi.

2021- yilning dekabr oyida Vazirlik huzuridagi Mehnat bozori tadqiqotlari tomonidan O'zbekistonning 108ta shahar va tumanlarida ijtimoiy so'rov o'tkazilgan. Tadqiqot davomida 500ta o'zini-o'zi boshqarish organlari, 5 mingta uy xo'jaliklari hamda 26,5 ming nafar fuqarolar qamrab olingan.

2022-yil 1-yanvar holatida mamlakatimizdagi mehnat resurslari soni 19 million 345 ming kishini tashkil etib, 2020-yilning shu davriga nisbatan 1,1% ga oshgan.

Hozirgi jamiyatimizda ishga ega bo'lish o'ziga nisbatan hurmat qo'llab-quvvatlashdir. Hatto mehnat sharoiti og'ir va vazifalari zerikarli bo'lgan ish ham inson ruhiy holatini va kundalik faoliyat tashkil etuvchi asosiy omildir. Demak ishsizlik tajribasini faqat ish nima berish mumkinligi to'g'risidagi kontekstdagina tog'ri tushunish mumkin. Haq to'lanadigan ishning 6 ta karakteristikasi pul, faoliyat darajasi, xilma-xillik, ijtimoiy aloqalar, shaxsiy identlik. Bunday g'alati ro'yxatdan keyin, nega ishsizlik indevidning o'z ijtimoiy qadriga ishonchini pasayishiga olib kelishini tushuntirish qiyin emas.

Mamlakatimizda ishsizlar sonini kamaytirish uchun malakali mutaxassislar har taraflama bilimni qilib yetishtirish, ish haqini ko'paytirish kerak. Shuningdek kasb tanlayotgan o'quvchilarga ota-onalari, ustozlari kelajagi bor bo'lgan, o'zi yaxshi ko'rgan kasbga yo'naltirishi zarur. Ana shundagina yuqoridagi statistik ko'rsatkichlar yildan-yilga kamayib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Q.X.Abdurohmonov, Sh.R.Xolmominov, A.B.Xayitov, A.M.Akbarov. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi: O'quv qo'llanma. Toshkent,2013.
2. Н Арабов.Мехнат иқтисодиёти ва социологияси:Маърузалар матнлари.Самарқанд,2014.
3. Энтони Гидденс. Социология: O'quv qo'llanma.Тошкент,2002.
4. Абдурахмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти:Дарслик.Т:2009,247-б.
5. Ўзбекистон Республикасининг "Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида"ги Қонуни (янги таҳрири) Тошкент,1998.
6. Ўзбекистон Республикасининг Мехнат Кодекси 77-модда. Т.:2007.
7. [https://davr24.uz/Ishsizlik\\_reytingi](https://davr24.uz/Ishsizlik_reytingi).
8. [https://www.gazeta.uz/O'zbekistonda\\_ishsizlik\\_darajasi\\_9,6\\_foizni\\_tashkil\\_etdi](https://www.gazeta.uz/O'zbekistonda_ishsizlik_darajasi_9,6_foizni_tashkil_etdi).